



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI


2022- YIL YANVAR-APREL (DASTLABKI MA'LUMOT)




Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2022- yil yanvar-aprel oyida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-aprel oyida Viloyat korxonalari tomonidan 1737,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 103,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 89,0 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 23,9 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 11,3 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 37,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,1 % ini tashkil etdi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Koʻmir, ming t.	144,5	63,3	-81,2
Neft, ming t.	-	28,4	28,4




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	8,8	9,9	1,1
Chaqiq tosh, ming t.	44,2	22,6	-21,6

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar-aprel

FHI,% da



2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1547,3 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 89,0 % ini tashkil etdi.

2021- yil
yanvar-aprel


89,1 %

2022- yil
yanvar-aprel

89,0 %




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,5 % ni (2021- yilning yanvar-aprel oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,4 % (0,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 18,3 % (21,9 %) va quyi texnologiyalisi – 69,9 % (66,7 %)ni tashkil etdi.







■ 2021- yil ■ 2022- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 5,0 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,4 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 26,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 50,4 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,9 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,5 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 92,2 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






2022- yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 6,3 ming tonna paxta tolasi (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 11,1 % ga kamaygan), 7,0 ming tonna boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (22,6 % ga kamaygan) 12,1 ming tonna kalava ip (12,5 % ga kamaygan), 20,8 ming tonna neft bitumi (6,4 % ga ko'paygan) hamda ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	7,0	6,3	-0,7
Kalava ip, ming t.	13,9	12,1	-1,8
Boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut), ming t.	9,1	7,0	-2,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	37,9	36,5	-1,4
Sariyog', t.	0,3	0,7	0,4
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	1,2	0,9	-0,3

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati ulushi 2,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 0,8 m. ga o'sgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi esa, 97,7 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 7,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 7,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 138,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 35,5 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 49,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 87,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 3,9 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 285,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 82,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 105,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 8,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 43,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 117,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 44,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 121,1 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 776,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 87,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,7 %, fizik hajm indeksi 90,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 99,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 94,4 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 92,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 8,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 90,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,9 % ni, fizik hajm indeksi 123,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 171,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 80,4 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 58,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 117,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,8 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 128,9 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	14,0	66,3	52,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	19,4	17,1	-2,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 35,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,1 % ini) tashkil etdi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	2,3	1,0	-1,3
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	7,2	8,5	1,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 21,1 mlrd. so'm, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 1,0 mlrd. so'm shuningdek, 7,2 mlrd. so'm boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 605,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 34,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-aprel

42,5 %

2022- yil
yanvar-aprel

41,7 %

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-aprel

57,5 %

2022- yil
yanvar-aprel


58,3 %

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,6 % (2021- yil yanvar-aprel oylarida 0,9 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo'rg'on tumani 18,4 % ni, Sho'rchi tumaniga to'g'ri kelib 14,2 % ni, Termiz sh. 16,1 % ni tashkil etdi.



Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Viloyat o'sish sur'ati (103,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Bandixon (160,4 %), Sherobod (128,3 %), Jarqo'rg'on (128,4 %), Oltinsoy (150,1 %), Termiz (110,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo'rg'on tumani 18,4 % ni, Sho'rchi tumaniga to'g'ri kelib 14,2 % ni, Termiz sh. 16,1 % ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm



Surxondaryo Viloyatsi hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelib 18,9 % ni, shuningdek, Sherobod tumani 12,3 % ni, Termiz shahri esa 15,9 % ni tashkil etdi.

Surxondaryo Viloyati

2020- yil

1424,6 mlrd. so'm

2020- yil yanvar-aprel

2021- yil

1524,4 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-aprel

2022- yil

1737,8 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-aprel



2020- yil

106,5 %

2020- yil yanvar-aprel

2021- yil


105,0 %

2021- yil yanvar-aprel

2022- yil

103,7 %

2022- yil yanvar-aprel



FHI, % da

mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jarqo'rg'on (1444,3 ming so'm), Termiz shahri (1447,8 so'm), Sherobod (1052,2 so'm) hamda Termiz (1186,3 ming so'm) tumanlarida o'rtacha Viloyat darajasi ko'rsatkichidan (631,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Surxondaryo Viloyati

2020- yil

549,6 ming so'm

2020- yil yanvar-aprel

2021- yil

567,3 ming so'm

2021- yil yanvar-aprel

2022- yil

631,9 ming so'm

2022- yil yanvar-aprel



01

2020- yil

105,5 %

2020- yil yanvar-aprel

02

2021- yil

105,6 %

2021- yil yanvar-aprel

03

2022- yil



101,3 %

2022- yil yanvar-aprel

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 220,3 ming so'm bo'lgani holda, Termiz shahrida – 512,0 ming so'mni, Termiz tumanida – 419,8 ming so'mni Sho'rchi tumanida – 394,2 ming so'mni va Jarqo'rg'on tumanida – 490,5 ming so'mni tashkil etdi.

Surxondaryo Viloyati



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 943,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 54,3 % ni tashkil etdi.



Surxondaryo viloyati

2020- yil

527,9 mlrd. soʻm

2020- yil yanvar-aprel

2021- yil

603,2 mlrd. soʻm

2021- yil yanvar-aprel

2022- yil

943,6 mlrd. soʻm

2022- yil yanvar-aprel



2020- yil

37,1 %

2020- yil yanvar-aprel

2021- yil

39,6 %

2021- yil yanvar-aprel

2022- yil

54,3 %

2022- yil yanvar-aprel

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Viloyatda 4 682 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 832 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,8 % i) Termiz shahriga, 550 tasi (11,7 %) Denov tumaniga, 353 tasi (7,5 %) Sho'rchi tumaniga, 310 tasi (6,6 %) Termiz tumaniga va 294 tasi (6,3 %) Sariosiyo tumaniga to'g'ri kelmoqda.

